

muhabbatdagi istiqbolini ham oldindan aytib berish mumkin. Basharti «agape» ustunlik qilsa, hissiyotning umri uzoq bo'lishi va aksincha «eros» ustun bo'lsa, tez orada hissiy qoniqish sodir bo'lib, bunday odamdagi muhabbat hislarining umri nihoyatda qisqa bo'lishi mumkinligi kuzatiladi.

Sevgi-muhabbat tuyg'ularini D.A. Li bir necha turlarga bo'ladi:

1. EROS – kuchli sevgi-muhabbat hislari bo'lib, bu hislar asosida yotgan motiv muhabbat obyektiga jismoniy ega bo'lish. Bunda jinsiy intilish yetakchilik qiladi.

2. LYUDUS – sevgi hislarini unchalik chuqur bo'lmagan muhabbat o'yini sifatida idrok qilinadigan, sevgi hislari obyektiga oson almashishi mumkin bo'lgan turi.

3. STORGE – tashqi ko'rinishidan kuchli ifodalanmagan, ammo ishonchli muhabbat – do'stlik turi.

4. PRAGMA (L+S) – lyudus va storgelardan iborat doimo ong nazoratida bo'lgan, sevgan shaxsining manfaatlarini ko'zlagan maqsadlari asosida yuzaga kelgan sevgi hislaridir.

5. MANIYA (E+L) – eros va lyudusdan iborat bo'lib, sevgan kishi sevgi obyektidan tobeligi bilan xarakterlanadi. Ammo eros va lyudusdan bu turning farqi sevgan shaxsda o'ziga ishonch hislari yetarli bo'lmaydi.

6. AGAPE (E+S) – eros va storgelar yig'indisidan iborat kuchli ifodalanadigan sevgan kishi muhabbat obyektiga hamma narsasini va hatto o'zini ham bag'ishlashga tayyor bo'lgan hislar turi va hokazo.

Kuzatishlarga ko'ra erkaklarning sevgi-muhabbat hislarida ko'proq qismini eros va lyudus, ayollarda esa pragma, storge va maniya turlari tashkil etadi.

O'smir va o'spirin yoshidagi o'g'il va qiz bolalarda ko'proq maniya turi, katta yoshdagilarda esa boshqa turlar kuzatiladi.

Bir shaxsning hayotida muhabbatning yuqoridagi bir necha turlari alohida kuzatilishi mumkin. Ba'zilar esa faqat bitta tur uchraydi. Bizning fikrimizcha, muhabbat turlari sevgan va sevilgan kishilarning yoshiga, husniga, ma'lumotiga, madaniy saviyasiga, jamiyatda tutgan mavqeyiga, hayot tarziga, dunyoqarashiga, qaysi muhitda tarbiya ko'rganligiga, xarakteriga, jinsiy xulqiga, qarama-qarshi jins haqidagi tasavvuriga, nerv sistemasiga, milliy psixologik xususiyatlariga bog'liq. Ba'zi

yigit va qizlarda sevgi hislari bir turda boshlanib, ma'lum vaqtdan so'ng o'zga turiga o'tishi mumkin. Masalan: «Eros» turida boshlanib «agape»ga aylanish yoki «lyudus» tarzida yuzaga kelib, «storge» turiga o'tishi mumkin.

Agar muhabbat turiga nazar tashlaydigan bo'lsak, erkin muhabbatning shakllanishi o'rta asrlarga to'g'ri keladi. Xususiy mulkchilikning ravnaqi, antagonistik sinflarning mavjudligi, ayollarning huquqsizligi erkin muhabbatning ravnaq topishiga to'sqinlik qiladi. «Layli va Majnun», «Tohir va Zuhra», «Farhod va Shirin», «Romeo va Julietta» kabilarni erkin muhabbatning yuzaga kelishi va uning taqdiri haqidagi ilk asarlar deb aytilish mumkin.

Taraqqiy etgan jamiyatda yangi tartiblarga asosan yuzaga kelgan oila, erkak va ayol o'rtasidagi mavjud tengsizliklarni yo'qotish muhabbatning yuqori darajada ravnaq topishiga zaruriy shart-sharoit yaratadi.

Lekin, afsuski, ba'zi yoshlar «erkin hayot», «erkin muhabbat» kabi ruhiyat omillarini noto'g'ri tushunib, ma'naviy axloqsizlikka mayl qo'yishyapti, insonlar o'rtasidagi eng nozik bo'lmish jinsiy munosabatlardan esa «boylik orttirish», «go'zal hayot» kechirish manbayi sifatida foydalanishmoqda. Bu axloqiy tubanlik, nosog'lom dunyoqarash oqibatidir. Bu hol ba'zi oilalarda ma'naviy tarbiya masalasi unutilib qo'yilganligining, ayrim ta'lim-tarbiya muassasalari va ularning pedagogik jamoalarining o'z vazifalarini yetarli darajada uddalay olmayotganliklari natijasidir.

5.3. MUHABBAT VA YOSH

Muhabbat ontogeneziga nazar tashlanganda sevgi hissining ilk kurtaklarini bog'cha yoshidagi bolalarda ham ko'rish va buni har bir tarbiyachidan so'rab, ishonch hosil qilish mumkin. Lekin tabiiyki, bu hali to'laqonli muhabbat bo'la olmaydi. Bolalikdagi sevgi hislarida fiziologik komponent, ya'ni jinsiy intilish deyarli bo'lmaydi. Ulardagi hissiyotning aksariyat qismi ruhiy komponentdan iborat.

Maktab yoshidagi o'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi muhabbat hislari esa birmuncha farq qiladi.

O'spirinlik yoshidagi qiz bolalarda ruhiy komponent jinsiy komponentdan ustunlik qilsa, o'g'il bolalarda hissiyot diver-

gensiyasi — bo‘linishi kuzatiladi. Ya’ni ular muhabbat hislarini bitta qizga nisbatan boshidan kechirsalar, jinsiy intilishni katta yoshli ayolga nisbatan his etadilar, ulardagi hissiyot ikki obyektga bo‘linadi. Bu faqat o‘g‘il bolalarga xos bo‘lib, qizlarda bunday hol kuzatilmaydi.

O‘smirlik yoshida o‘g‘il bolalarda giperseksuallik natijasida ularning hissiyotida jinsiy intilish ustunlik qiladi yoki uning ahamiyati keskin ortadi. Qiz bolalarda esa ruhiy komponentning ustunligi saqlanib turadi.

17—25 yoshlardagi yigit-qizlarda o‘z juftini topishga intilish va hirs keskin ortadi. Sevish va sevilishga bo‘lgan ehtiyojning ortishi natijasida yoshlar yorini tezroq qidirib topishadi va oila qurishadi, ba’zan bunday yoshlar qisqa vaqt ichida ajralishga ham ulgurishadi.

25 yoshdan keyin qizlarning oila qurish imkoniyatlari ancha kamayib boradi. Unda bo‘lg‘usi kuyovga (yigitga) nisbatan talabchanlik oshib, tanqidiy qarash kuchayadi. Endi unda hislarga berilish kamayib, uning o‘rniga bo‘lg‘usi yoriga butunlay boshqacha qaray boshlaydi. Bunday ruhiy o‘zgarishlar yigitlarda ham kuzatiladi, ammo qizlardan farqli ravishda ularning oila qurish, uylanish imkoniyatlari kamaymaydi, aksincha birmuncha ortadi. Chunki bu yoshda ularning ko‘pchiligi oliy o‘quv yurtini yoki o‘rta-maxsus bilim yurtini bitirib, ma’lum bir ixtisosni egallagan, mehnat faoliyatini boshlagan bo‘ladilar. Ya’ni oilani mustaqil tebratish imkoniga ega bo‘ladilar.

Muhabbat hislari erkak va ayollarda o‘ziga xos shahvoniy hirs uyg‘otadi.

Erkak kishida deyarli doimo fiziologik komponent ustunlik qiladi. Jinsiy intilish, jinsiy hayot ular hissiyotida nihoyatda muhim o‘rin egallaydi. Yigit sevgan qizininig tashqi ko‘rinishiga ko‘proq e’tibor beradi.

Yuqorida sanab o‘tilgan xususiyatlarga qizlar ham befarq qarashmaydi. Bu xususiyatlarning yigit tomonidan idrok etilishi ayol uchun katta ahamiyatga ega. Ammo shu bilan birga ayollarning erkaklardan farq qiluvchi tomonlaridan biri shundaki, ular ko‘proq yigitning bo‘y-bastiga, xulqiga, muomalasiga e’tibor beradilar.

Erkaklarda jinsiy (fiziologik) intilish ustunlik qilgani uchun ularda hissiy qoniqish tezroq yuzaga kelsa kerak, deb taxmin qilinadi. Ayollarda esa aksincha, ruhiy intilish yetakchi

bo'lgani uchun ularning muhabbat hislari erkaklarnikidek tez orada so'nmaydi va nisbatan uzoq davom etadi.

Ammo so'nggi yillarda ayollar hissiyotida, jumladan, muhabbatda ham jinsiy hayotning va uning asosi hisoblangan jinsiy intilishning ahamiyati keskin oshib borayotganligini ko'rish mumkin.

13–14 yoshli o'g'il bolalarning 40%i, qizlarning 26%i ilk sevgi hislarini boshidan kechirayotgan yoki kechirgan bo'ladi. Bu hol 15–16 yoshli o'g'il bolalarda – 17%, qizlarda 30%, 17–24 yoshli yigitlarda – 10%, qizlarda – 9%ni tashkil qiladi.

A.R.Lemexova (1973) qizlar va yigitlar orasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganib, uni uch turga bo'ladi.

1. Uyg'un tur – bunda qiz va o'g'il bolalarda axloqiy tushunchalar shakllangan, hissiyot madaniyati rivojlangan bo'lib, ular muhabbatga, qarama-qarshi jinsga, oilaviy hayotga birmuncha aniq qarashadi.

2. Oilaviy romantik tur – bunda muhabbat, jinslar orasidagi munosabatlar hayotdan yulingan holda, nihoyatda ideallashtirilib olingan bo'lib, hayotdagi mavjud borliq bilan to'qnashganda esa barcha tasavvurlari parchalanib, ruhan tushkunlikka uchraydi.

3. Ma'naviy kambag'al tur – bunda yoshlar muhabbatni noto'g'ri tushunadilar. Muhabbatda ma'naviy yaqinlikni, ruhiy omilning ahamiyatini ko'ra bilmaydilar. Muhabbatda asosiy rolni jinsiy yaqinlik o'ynaydi, deb biladilar. Bunday toifadagi yoshlar ko'p hollarda jinsiy hayotni erta boshlaydilar.


O'g'il va qiz bolalarning turli yosh bosqichlaridagi o'zaro munosabatlarni o'sib rivojlanishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, quyidagicha yaqqol ifodalangan manzarani ko'rishimiz mumkin.

Bog'cha yoshidagi qizlar o'g'il bolalar bilan birga o'ynash jarayonida juda yaqin muomalada bo'ladi, bir-birlari bilan do'stlashadilar. Hatto ba'zan bolalikning ilk sevgi hislarini ham boshlaridan kechirishadi. Bu albatta, ularning kattalarga havas qilishi, ularga taqlidi oqibatida kelib chiqadi.

Boshlang'ich sinflardan o'smirlik yoshigacha o'g'il bolalar ko'pincha o'g'il bolalar bilan, qiz bolalar esa qiz bolalar bilan yaqin munosabatda bo'lishi tufayli jinslarning bir-birlaridan uzoqlashishi kuzatiladi.

O'smirlik yoshidan boshlab ular orasida yaqinlashish mayli

Muhabbat yoshi va bosqichlari



paydo bo'la boshlaydi. O'smirlikning birinchi davrida bolalar o'zaro biror narsadan qo'rqqan tengdoshiga «qiz bolamisan, qo'rqasan», «o'z so'zining ustidan chiqmagan qiz bola» kabi iboralarni qo'llashadi. Bu iboralar ularning asosan o'z jinsini ustun qo'yishga intilishi, qiz bolalarni tan olmasligini ko'rsat-sa, qizlar ham o'z navbatida o'g'il bolalarni nazar-pisand qil-masliklarini ko'ramiz.

5.4. MUHABBAT BOSQICHLARI

To'laqonli sevgi – muhabbatni his etgan har bir inson muhabbatning boshlang'ich, alangalangan va o'zaro hurmat bosqichlarini bosib o'tadi.

Boshlang'ich bosqich haqiqiy, istiqboli porloq, bir umrlik sof muhabbatning boshlanishi yoki aksincha shunchaki bir havas bo'lishi yoki umri qisqa sevgining biror-bir ko'rinishi bo'lishi mumkin. Mazkur bosqich muhabbatning «agape»

turining boshlanishi yoki «lyudus» turining o'zginasi bo'lishi mumkin.

Bu albatta, sevib qolgan odamning dunyoqarashiga, uning o'ziga xos xususiyatlariga, ya'ni tez sevib qolishiga, hissiyotni paydo qilgan omillarga, ya'ni o'z shaxsini tasdiqlash, o'zgalar-dan qolishmaslik, bo'sh vaqtini xursandchilik bilan o'tkazish, oila, ota-onalar iskanjasi yoxud nazoratidan ozod bo'lish, erkinlikni qo'lga olish, oila qurish, haqiqiy umr yo'ldoshini uchratib, bir umr unga g'amxo'rlik qilish, unga hayotini bag'ishlashi va hokazolarga bog'liq.

Birinchi bosqichning o'sib ikkinchi va uchinchi bosqich-larga o'tishi zarurmi, yo'qmi? – degan savol ko'pchilikni qi-ziqtiradi. Birinchi bosqichda, yuqorida aytganimizdek, hamisha ham to'laqonli muhabbat bo'lavermaydi. Ikkinchi bosqichga o'tgandagina uni haqiqiy to'laqonli muhabbat deyish mumkin.

Birinchi bosqich ko'p kishilarda kuzatiladi va ikkinchi bosqichga o'tmasdan so'nib qoladi. Muhabbatning bu bosqichi estetik didimizga birmuncha to'g'ri keladigan, estetik va jinsiy ehtiyojlarni qondirish (jinsiy yaqinlik shart emas) mumkin bo'lgan ikki jinsni ma'lum vaqtgacha bo'lgan o'zaro muno-sabati natijasida yuzaga keladigan hissiyotdir. Bu ko'pincha muhabbatning «lyudus» turini tashkil qiladi. Lekin ko'chada uchratib, birdan yoqtirib qolish kabi hollarni birinchi bosqichga kiritib bo'lmaydi.

Ikkinchi, ya'ni alangalangan bosqichdan birinchi bosqich-ga qaytilmaydi. Ikkinchi bosqichdan faqat uchinchi — o'zaro hurmat bosqichiga o'tish mumkin, xolos. Demak, faqat birinchi bosqichgina qaytish xarakteriga ega, ikkinchi bosqichdan bosh-lab hissiyot ortga qaytmas xususiyat kasb etadi. Faqat ma'lum sabablarga ko'ra bu bosqichlar «tez» bosib o'tilishi mumkin. Bu ayniqsa, yoshlikda ilk sevgi – muhabbatni boshdan kechirishda yoki birdan sevib qoladigan yengil tabiatli kishilar-da uchrashi mumkin. Buni birdan alanga olib tez so'ngan gulxanga o'xshatish mumkin. Demak, bunday hissiyot uzoq davom etmaydi. Bundan muhabbat o'tkinchi tuyg'u ekan-da, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak.

Birinchi bosqichning o'rtacha davom ettirish vaqti hissiy-otni boshidan kechirayotgan shaxsning yoshiga, jinsiga, hayot tarziga, shaxsiy xulq-atvoriga, shuningdek bir qancha tashqi va ichki sabablarga bog'liq bo'lib, ba'zida hatto bir necha soatdan

bir necha kungacha, bir necha yilgacha davom etishi mumkin. Buning aniq o'ldir bo'lishi mumkin emas.

Qizlar hissiyotidagi ruhiy omil yigitlardagiga nisbatan kuchli bo'lganligi va oilaviy hayot bilan oilaviy baxt qizlar hayotida muhim o'rin egallashi sababli sevgan kishisiga fidoyilik, uning manfaatlarini o'z manfaatidan yuqori baholash, sevgan kishisiga o'zini bag'ishlash fazilatining kuchliroq ifodalanishi sababli ko'proq qizlarda bu bosqich tezroq o'tadi.

Hayotda ko'p qizlarning aldanish oqibatida homilador bo'lib qolishi, yigitlarning boshqa qiz bilan turmush qurib ketishi bu bosqichning qizlarda nisbatan tez kechishini ko'rsatadi. Buning sababini qizlarning shunchaki yengiltakligidan qidirmasligimiz, ruhiy jarayonga bog'liq ekanligini tushunishimiz lozim.

Birinchi bosqichni nisbatan tezroq bosib o'tgan qizlar uchun ikkinchi bosqich yigitlardagiga nisbatan uzoq davom etadi. Buning sababini quyidagicha tushuntirish mumkin:

– avvalo qizlarda ruhiy omilning jinsiy omilga nisbatan ustunligi ko'pincha jinsiy hayot ularda hissiyotning ikkinchi bosqichida boshlanadi. Yigitlarning hissiyotida jinsiy omilning kuchliligi sababli ruhiy qoniqish tezroq kechadi, chunki ruhiy omil miqdorining o'zi kamdir;

– jinsiy hayot kechirish bilan his-tuyg'ular yigitlar uchun oila qurgandan so'ng paydo bo'ladigan yangilik emas, chunki ularning ba'zilar uyланmasdan oldin ham ancha-muncha tajribaga ega bo'ladilar.

Qizlar esa oila qurganlaridan, ya'ni jinsiy hayot kechira boshlaganlaridan so'ng ilgari ularga batamom noma'lum bo'lgan his-tuyg'ular oilaviy hayotning ahamiyatini yanada oshiradi, erga bo'lgan mehr-muhabbat yanada oshadi. Shu bois qizlarda ikkinchi bosqichning umri uzayadi.

Uchinchi bosqich ikkinchi bosqichdan hissiyotning kuchi va tashqi ifodalanishining birmuncha susayishi bilan muhabbat obyektini ideallashtirgan tarzda emas, balki sevgilisining shaxsidagi yutuq hamda kamchiliklarini obyektiv idrok qilinishi bilan farq qiladi.

Aksariyat sevrishganlar va er-xotinlar uchun ikkinchi bosqichdan uchinchisiga o'tish ular orasidagi munosabatlarni saqlanib qolishiga shubha tug'diradi. Bu shubha bosqichdan

bosqichga o'tishda emas, balki har bir sevrishgan juftlarda muqarrar yuzaga keladigan sevgini o'zaro hurmat bosqichiga o'tishini oldindan bilmaslik o'tishdagi hissiy o'zgarishlarni noto'g'ri talqin etish, «muhabbat obyektini tanlashda adashdim shekilli», kabi yanglish fikrlarni yuzaga kelishidadir.

Aksariyat yosh oilalarda shunday vaqtda er-xotin orasida kelishmovchiliklar ko'payadi va ko'pchilik yoshlar bunday vaziyatda oiladan chetda yangi sevgi-muhabbat obyektini qidirib qolishadi. Ayrim oilalar esa bu o'zgarishlarni noto'g'ri talqin etib, ajralib ham ketishadi. Shuning uchun yoshlar muhabbat hislarini turli bosqichlarda bo'ladigan o'zgarishlarni oldindan bilishlari va o'z hissiyotlarini oldindan qurbon qilmasliklari kerak.

Uchinchi bosqich umrning oxirigacha davom etishi yoki turli va chetdan bo'ladigan ta'sirlarga ko'ra barham topishi mumkin.

Agar er-xotinlarning birida «yangi muhabbat» tug'ilib qol-sa, turmush buzilib ketishi mumkin. O'rtada «yangi muhabbat»ga sababchi uchinchi shaxs paydo bo'lmasa oila buzilmaydi. Chunki odam qariganda yolg'iz qolishdan, o'g'il-qizlar, kelinlar, nabiralar, tanish-bilishlar oldida gap-so'z bo'lishdan, obro'ni yo'qotishdan qo'rqadi. Bunday to'siqlarni yengib o'tish uchun esa albatta o'rtada muhabbat bo'lishi kerak. Aks holda oilaviy burch zo'rma-zo'raki bajarib boriladi, xolos.

Uzoq yillar uchinchi bosqichda yashagan er-xotinlar ikkinchi bosqichga qaytishlari mumkin emas.

Ikkinchi bosqich konkret sevgilisi bilan bir marotaba boshdan kechirilib shu shaxs bilan ikkinchi bosqichga qaytish bo'lmaydi.

Alangalangan bosqichni odam o'z hayotida bir necha marotaba his etishi mumkin, ammo har birida yangi sevgi bo'ladi.

Uchinchi bosqichni uzoq yillar davomida birga yashagan oilalarda kuzatish mumkin. Bunda erning xotiniga yoki xotinning erga bo'lgan hissiyoti keskin kuchayadi. Ya'ni hissiyotda umrning ayrim yoshlarida ko'tarilishi kuzatiladi. Bu ayniqsa tashqi sabablarga ko'ra ma'lum vaqt ayriliqda yashaganda, oilaviy hayotdagi mayda-chuyda narsalar ilgarigi ahamiyatini yo'qotganda, o'rtadagi sevgi-muhabbat hislari qayta tiklanadi. Va hatto zo'rayib ketadi. Ba'zan esa bu hol katta fojialarni

boshdan kechirish yaqin kishilarini yo‘qotishdan so‘ng ham bo‘lishi mumkin. Er-xotinlardan birining oiladan tashqari jinsiy munosabatda bo‘lganidan so‘ng ham o‘z turmush o‘rtog‘iga bo‘lgan hissiyotining kuchayishi kuzatilishi mumkin.


Er-xotin o‘rtasidagi his-tuyg‘ularining susayishiga o‘ta faol jinsiy hayot kechirish, oilada bo‘lib turadigan mayda-chuyda kelishmovchiliklar ham sabab bo‘ladi. Nikohgacha bir-birlariga yaxshi ko‘rinish, dilni rom qilish maqsadida chiroyli kiyinish, pardozi-andozga zo‘r berish, xulq-atvorning faqat yaxshi tomonlarini ko‘rsatishga urinish, to‘ydan keyin sal vaqt o‘tmay ma‘lum bo‘lib qoladi. Ya‘ni insonning asli namoyon bo‘la boshlaydi. Hatto bir-birimizsiz yashay olmaymiz deganlar bir-birini haqorat qilishgacha boradi. Bularning bari o‘rtada chin sevgi bo‘lmaganidan yoki uni asray olmaganlikdan dalolat beradi.

5.5. MUHABBAT VA MIJOZ

Sevgi-muhabbatning paydo bo‘lishini bevosita mijoz toifasiga bog‘lash xato bo‘lar edi, ammo mijoz bilan hissiyotning ifodalanishi orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni inkor etib bo‘lmaydi.

Xolerik va sangvinik toifadagi yoki ularning aralashuvidan iborat toifadagilar o‘zgalar bilan tez va oson til topishadi. Bu toifadagi erkak va ayollar o‘zlariga do‘st topishda unchalik qiynalmaydilar. Shuningdek, bunday toifadagi odamlar flegmatik va melonxoliklarga nisbatan tez va oson sevib qoladilar. Chunki ularda hissiyot tashqi tomondan kuchli ifodalangan va shu sababli ham hissiy qoniqish osonroq va tezroq sodir bo‘ladi. Bundaylar yuqoridagi aytib o‘tilgan bosqichlarni birmuncha tezroq bosib o‘tishlari ham mumkin.

Flegmatik va melonxoliklar esa o‘zgalar bilan til topishishlari ancha qiyin. Ular duch kelgan kimsa bilan do‘stlashib ketavermaydilar. Ammo do‘stlikning qadriga yetadilar va arzimagani sabab uchun do‘stlikdan kechmaydilar. Bu toifadagi kishilarda hissiyot nihoyatda chuqur va pinhona kechadiki, buni boshqalarning tashqi tomondan sezishi qiyin. Buni xuddi dar-yoning chuqurligini uning sathiga qarab bilib bo‘lmaganiga o‘xshatish mumkin.



Muhabbatning qay darajada ifodalanishi. Mijoz turidan tashqari o'sha odam yashayotgan sharoit, muhit, tevarakat-rof dagilar qarashi, sotsial axloqiy va milliy mezonlarga ham bog'liq bo'ladi. Masalan ba'zi millatlarda qizlarning nikoh-gacha jinsiy hayot kechirganligiga yoki bu borada ma'lum tajriba orttirganligiga birmuncha odatiy hodisa sifatida qaralsa, boshqa joylarda bunday qizlarga nafrat bilan qaralib, ularning bu ishlari sharmandalik hisoblanadi. Jumladan, Kavkaz va O'rta Osiyo mamlakatlarida mahalliy millatlar uchun qiz bo-laning nikohgacha jinsiy hayot tajribasiga ega bo'lishi axloqsizlik, – deb qaraladi. Hatto O'zbekistonning ba'zi qishloqlarida «qiz yigit bilan yurar emish» – degan mish-mish gaplarning o'zi shu qizga sovchilarning kelmasligiga, qizlik obro'sining tushishiga, turmushga chiqish imkoniyatining keskin pasa-yishiga olib keladi.

5.6. MUHABBATNING BELGILARI

Hissiyotdagi ayrim bosqichlarga ko'ra muhabbat turini, bosqichini va umuman sevgi hislarining bor-yo'qligini aniqlash, Ibn Sino kabi «og'ir xastalik»ka tashxis qo'yib, uni davolash choralari ko'rish mumkin. Bu hissiyotlarning ayrimlari aslida birinchi bosqichdayoq kuzatiladi va ikkinchi bosqichida nihoyatda kuchli, hamda har tomonlama ifodalana-di. Ular quyidagilardan iborat:

«**Birgalik**» effekti. Bunday hollarda muhabbat hislarini

MUHAMMAD BELGILARI:

1. «Birgalik» effekti.
2. Idrokning ideallashtirishi.
3. Altruizmning keskin ifodalanganligi.
4. Muhabbat kuchiga cheksiz ishonish.
5. Sevgilisida boshqalar koʻrmagan jihatlarni koʻrish.

boshdan kechirayotgan shaxsning ongida, tasavvurida, xayolida doimo sevikli yori gavgdalanib turadi. Nima ish qilmasin va qayerda boʻlmasin, hatto yoridan juda uzoq masofada boʻlsa-da, xayolan u bilan gaplashadi, yashaydi.

Idrokning ideallashtirishi. Bunday hollarda sevilgan inson ideallashtirilgan holda idrok etiladi. Takrorlanmas darajadagi shaxs sifatida, har tomonlama mukammal shakllangan, nihoyatda chiroyli, aqlli, odobli va oʻzga ijobiy xislatlarni oʻzida mujassamlashtirgan yigit yoki qiz sifatida namoyon boʻladi. Feʼl-atvoridagi salbiy tomonlar yoki biror jismoniy nuqsonlar kamchilik sifatida emas, balki betakror, noyob fazilat sifatida qabul qilinadi. Sevgilisi va u bilan bogʻliq barcha narsalar (uning qarama-qarshi jinsdagi tengdoshlaridan tashqari) va yaqin kishilari ham faqat ijobiy jihatdan idrok etiladi.

Altruizmning keskin ifodalanganligi. Bu bosqichda altruizmning ogʻirlik markazi muhabbat timsoli boʻlgan qiz yoki yigitga yoʻnalgan boʻladi. Altruizm nihoyatda kuchli boʻlganda inson sevgan kishisi uchun hamma narsaga tayyor boʻladi. U sevgan kishisini manfaatini oʻzining manfaatidan ustun qoʻyadi va buni birinchi darajali zarurat hisoblaydi.

Muhabbat kuchiga cheksiz ishonish. Bunday holatda muhabbat hislarini boshdan kechirayotgan shaxs oʻz sevgilisi bilan birga boʻlishni, boʻsh vaqtlarini birga oʻtkazishni, tezroq u bilan oila qurishni va umrining oxirigacha birga boʻlishni orzu qiladi, shunga intiladi, u koʻpincha bu rejasini amalga oshiradi. Bunday oliy baxtga erishish yoʻlida turli toʻsiqlar uchrashi muqarrardir. Chunki hayot bitmas-tuganmas, turli-tu-

man qiyinchiliklar va qarama-qarshiliklardan, jumladan ota-onalarning qarshiligi, sevgilisining o'zga kishi bilan nikohda ekanligi, ikkalalarining ham nikoh yoshida emasligi, ijtimoiy va iqtisodiy yetuklikka erishmaganligi, uy-joyining yo'qligi, birining o'zga shahardan yoki qishloqdan kelganligi, o'zga millatga mansubligi va hokazolardan iboratdir.

Yuqoridagi sabablar sevgi hissiyotini boshidan kechirayotgan yoshlar uchun to'siq bo'la olmaydi va ular bu to'siqlarning bariga e'tiborsizlik bilan qarashadi. Ularning fikricha muhabbat barcha narsaga qodir, barcha to'siqlarni yenga oladi, ayni vaqtda muhabbatlari haqiqiy bo'lsa ular barcha qiyinchiliklarga birgalikda bardosh berishadi. Haqiqatan ham chin muhabbat bu to'siqlarning so'zda yoki tasavvurda emas, balki hayotda amalda yengib o'tadi va oila qurishda, hayotiy qiyinchiliklarni yengib o'tishda katta omil hisoblanadi. Lekin yoshlar faqat ikki narsani oldindan ko'ra bilmaydilar: 1) muhabbatning hissiy kuchi uchinchi bosqichga o'tgandan keyin birmuncha susayishini; 2) hissiyot kuchi susayishi bilan hayot qiyinchiliklari ahamiyatining keskin oshishi va sevrishganlarning o'zaro munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishini, ko'pgina sevrishganlar o'z muhabbatlarini boshqalarnikidan ustun qo'yishadi va umrlarining oxirigacha shunday qoladi, deb o'ylaydilar.

Sevgilisida boshqalar ko'rmagan jihatlarni ko'rish, o'zgalar ahamiyat bermagan xislatlarni sezish, hali yaqqol ifodalanmagan qobiliyatni aniqlash, uning qanday mutaxassis bo'lib yetishishini oldindan ko'ra bilishning barchasi muhabbat ziyoratligining namoyon bo'lishidir. Bu, albatta, sevgan odamning qanday ko'z bilan qarashiga bog'liq. Bu qarashning o'ziga xos ruhiy tomoni shundaki, u basharti ijobiy tomonlarini bo'rttirib ko'rsatsa, salbiy tomonlarga e'tibor bermaydi. Shular tufayli ko'pincha sevgilisining ota-onasi ham ko'ra bilmagan istiqbolini aytib bera oladi.

Sevgan odamda hayotga nisbatan muhabbat kuchayadi. Buni quyidagilarda ko'rish mumkin: ularda ruhiy jihatdan keskin o'zgarish sodir bo'ladi, dunyoni o'zgacha tasavvur qilishadi, hayotni chuqurroq idrok eta boshlaydilar, o'zgalarni qalbdan tushunish, ularga hamdardlik bildirish kuchayadi, ilgari yaqqol ifodalanmagan rahmdillik hislari paydo bo'ladi va ortadi. O'zgalarga yordam qo'lini cho'zish, tevarak-atrofdagi go'zallikni ko'ra olish — estetik idrok qilish kuchayadi.

Axloqiy qarashlar yuksaladi, oldingi yomon odatlarini tashlaydi (bu muhabbatning tarbiyaviy ta'siri o'zgalarga bo'lgan hurmatning oshishi tufaylidir), ijodiy faoliyati va ish qobiliyati ortadi (chunki muhabbat kishi faoliyatiga kuchli ta'sir qiladi) va h.k.

5.7. SEVGINING FASLIY O'ZGARISHIGA TAYYOR BO'LING

Tabiatda yil fasllarining o'zgarib turishi, har bir faslning o'ziga xos takrorlanmas go'zalliklari borligini bilamiz. Tabiatdagi o'zgarishlarni orziqib kutamiz, ulardan zavqlanamiz. Lekin o'z ruhiy olamimizda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni ko'ra bilmaymiz. Bu esa bizning hissiyotlarimizga, oilaviy hayotimizga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu o'ringa so'z muhabbatdagi fasllar o'zgarishi, undagi eng murakkab va xavfli bo'lgan ikkinchi bosqichdan uchinchi bosqichga o'tish haqida boryapti. O'tish har qanday davr uchun ma'lum bir inqirozlar bilan kechgani sababli bu bosqichda ham qator qiyinchiliklarga, turmush urinishlariga ro'baro' kelish mumkin. Chunki aynan shu davrdan boshlab sevgilisini ideallashtirib idrok qilishga moyillik kamayib boradi. Endi shaxs qanday bo'lsa, shundayligicha, real, aniq va xolisona idrok qilinadi. Mehr-muhabbatning yo'nalishi o'zgarib farzandlar tomonga og'adi va turmush o'rtog'iga nisbatan esa kamayib boradi. Ruhiy to'yinish – er-xotinning bir-biridan to'yib qolishidan, oiladagi turli ikir-chikirlardan nizolar kelib chiqa boshlaydi.

Er-xotin qanchalik yosh bo'lsa, bu davr shunchalik og'ir o'tadi. O'zaro kelishmovchiliklar ko'payadi. Ularning yoshligi, hayotiy tajribalarining yo'qligi oqibatida «muhabbatimiz o'ldi» yoki «muhabbatda, umr yo'ldoshi tanlashda adashdim, men hali yoshman xatoyimni to'g'rilab olaman», deb oilaviy yong'inni alanga oldirish bilan ahvol yanada og'irlashadi. Kuyov o'zicha: «Ko'cha to'la xotin», – desa, kelin: «Er qurib qolibdimi, ko'chaga chiqsam son mingta er, xohlasam ertaga-yoq birontasiga tegib olaman», – degan xayolga borishlari mumkin. Natijada to'yinishga uchragan hissiyotlarni va o'zaro munosabatlarni ruhiy jihatdan tahlil qilib, to'g'ri xulosa chiqarish o'rniga salbiy munosabatlar yuzaga keladi va ikki yosh ham bu munosabatning quliga aylanib qoladilar.

Bunda, albatta, kelin yoki kuyovning ota-onasidagi kamchiliklar, do'sti yoki qarindoshining to'ydan avval ogohlantirgani yoki to'ydan oldin sevishganlar orasida bo'lib o'tgan mayda-chuyda gaplar kuyov va kelin ma'lumotidagi tafovutlar: «Savodsiz bo'lmasa shu ishni qilarmidi?», «Oliy ma'lumotli xotin olgandan ko'ra uylanmasdan o'tgan yaxshi»; yosh orasidagi tafovutlari: «Xotining pedagog bo'lsa, bir umr tarbiyalaydi», «Ering san'atkor bo'lsa, oilaviy hayoting sahnaga aylanadi, xotining san'atkor bo'lsa, vafosizlik soya kabi ajralmaydi»; milliy tafovutlar: «O'z millatim bilan turmush qurganimda shunday xo'rlanmas edim»; ota-onaga aloqadorlik: «Piyanista otaning o'g'li kim bo'lardi?», «It emganiga tortadi» va shu kabi o'zini oqlab, bor gunohni umr yo'ldoshiga ag'darishga intilish salbiy munosabatlarning shakllanishiga imkon yaratadi.

Bunday munosabat shakllangandan so'ng oilaviy hayotdagi har qanday kelishmovchilik va nizolar xuddi shu munosabat zaminida hosil bo'layotgandek idrok etiladi. Bu munosabatga aloqador bo'lmagan voqealar xotirada saqlanmaydi, unga aloqadorlar esa uzoq muddatgacha xotirada saqlanib qoladi. Undan so'ng er-xotin salbiy munosabatlar quliga aylanadilar. Bu esa asta-sekin oila poydevorini yemirib, uning barbod bo'lishiga olib keladi. Endi o'zaro er-xotinlar emas, balki ular orasida yuzaga kelgan salbiy munosabatlar kurashadi. Er-xotin esa mazkur munosabatlarning jasur jangchilariga aylanadilar. Ular orasidagi jang muhabbat tamomila barbod bo'lgunicha davom etaveradi. Lekin barcha oilalarda ham o'tish davri yuqorida ifodalangandek kechavermaydi.

Yuqorida sevishganlar o'rtasidagi salbiy munosabat va uning oilaviy munosabatga zarbasini aytib o'tdik, xolos. Ammo munosabatlar ijobiy ham bo'ladi. Muhabbatning birinchi bosqichida hissiyotli inson ijobiy munosabatlar ta'sirida va ayniqsa, ikkinchi bosqichda o'zining yuqori nuqtasiga yetadi. Ammo ba'zi er-xotinlar (ko'pincha ayollarda) uchinchi bosqichga o'tishda va o'tgandan so'ng atrofdagi er-xotinlarga havas bilan qaraydilar, ularni o'z erlariga o'rnak qilib ko'rsata boshlaydilar. Bunda aksariyat ayol kishining o'z hayotiga xolisona ko'z bilan qaramasdan chiqargan xulosalari ustunlik qiladi. Bunday ayol va erkak o'z eri yoki xotiniga ularning hamkasblari, do'stlari, tanish-bilishlari ko'zi bilan qarab

ko'rishlari kerak. Shunda ular o'z umr yo'ldoshlarida qanchadan qancha ijobiy xislatlarni ko'radilar, ulardan boshqalarda bo'lmagan, biroq o'zlari qadrlay bilmagan qimmatli tomonlarni topadilar.

Xalqimizda «Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q», degan maqol bor. Bu eng avvalo oilaviy hayotga, er-xotin o'rtasidagi munosabatlarga taalluqlidir. Shuning uchun doimo o'rtadagi sevgi-muhabbatning qadr-qimmatini arzimagan sabablarga ko'ra yo'qolishiga yo'l qo'ymaslik, ko'ngilsizliklarning oldini olib yashash kerak. Aks holda keyingi afsus va pushaymonlar bir umr ruhiy azob berishini, yo'l qo'yilgan bu xatoni bir umr tuzatib bo'lmashligini yoddan chiqarmaslik kerak.

Hayot murakkab jarayon, unda nimalar bo'lmaydi, deysiz. Arzimas sabablardan janjal chiqarishga, uni avj oldirishga harakat qilmaslik kerak. Bizda «Er-xotinning urishi — doka ro'molning qurishi», degan ibratli gap bor. Xususan, o'rtada farzandlar paydo bo'lgandan keyin juda ehtiyot bo'lish zarur. Barbod bo'layotgan muhabbat tuyg'usini hech bo'lmaganda norasida go'daklar hurmati uchun, ular taqdirini o'ylab ham asrab qolish shart. Loaqal oila saqlab qolinmaganida ham sevgi-muhabbat hislarining nafratga aylanib ketmasligiga yo'l qo'ymaslik zarur.

Oilaviy hayotdagi xursandchiliklarni, o'tib ketgan shirin damlarni, iliq munosabatlarni eslash ham arzimas nizolarni ro'yobga chiqishining oldini oladi. Bu o'rinda er-xotin bir-birlarining xulq-atvorlaridagi ijobiy xususiyatlarini eslab turishlari ham muhim rol o'ynaydi. Shuni eslatib o'tish kerakki, muhabbatning ikkinchi — alangalangan bosqichi umrini uzaytirishga, o'zaro hurmat bosqichiga inqirozsiz, nizolarsiz o'tishga yoshlarni tayyorlash zarur. Bu esa oilaning totuv yashashiga yordam beradi. Buning zaruriy shartlari o'ta madaniyatli bo'lish, oilaviy turmushga ijodiy yondashishdir.

Umuman oilaviy hayotda, jumladan, yosh oilalarda kelishmovchiliklarga, qo'ydi-chiqdilarga olib keluvchi sabablar ko'p. Shulardan biri — rashk tuyg'usidir. Ba'zan rashk og'ir va kutilmagan oqibatlariga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham biz quyida rashk tuyg'usi, uning ko'rinishlari haqida to'xtalib o'tishni lozim topdik. Bu haqda bilib qo'yish va ma'lum tasavvurga ega bo'lish, Siz yoshlar uchun ham foydadan xoli emas.

5.8. RASHK HISLARI

Sevishganlar yoki oila qurayotganlarning o‘zaro munosabatlarini xarakterlovchi vaziyat, sharoitlardan biri bu – rashkdir. Sevikli odamidan ajralib qolish, uni yo‘qotib qo‘yish xavfini hech qachon boshdan kechirmagan odam rashkni qandaydir tushunarsiz aqlsizlikdek tasavvur qilishi mumkin. Sevikli odamidan ajralib qolish nima ekanligini bir marta bo‘lsa ham boshidan kechirgan odam esa rashkchini osongina tushunadi va unga ma‘lum darajada hamdardlik bilan munosabatda bo‘ladi. Oldingi vaqtlarda, ayniqsa sobiq ittifoq davrida (40–60-yillarda) ayrim salmoqli adabiyotlarda, rashk – bu «o‘tmishning jirkanch qoldig‘i», «xususiy mulkchilik asosida tug‘ilgan past hissiyot»dir, odamning shaxsiy erkinligini va boshqa odamlar shaxsiyatini hurmat qilish darajasiga erishilsa, rashk haqidagi gaplar o‘z-o‘zidan yo‘q bo‘lib ketadi, chunki bunaqa sharoitlarda uning yuzaga kelishi uchun hech qanday asos bo‘lmaydi, deb yozilar edi.

Haqiqatan ham, rashk aksariyat hollarda xususiy mulkchilik psixologiyasi izlarini o‘zida namoyon qiladi, ayrim odamlarda «rashk qiladimi – demak sevadi!» – degan qarash hozir ham mavjud. Ko‘pchilik odamlar uchun rashk – sevgining o‘ziga xos zarur «ziravor»laridan biridir.

Hozirgi vaqtlarga kelib bu o‘tmish «qoldig‘i» asta-sekinlik bilan qayta oqlanmoqda. Nafaqat badiiy adabiyotlarda, balki publitsistik va ilmiy asarlarda ham bu hissiyotning yashashga, mavjud bo‘lishga haqqi borligi tez-tez qayd etilmoqda. O‘z navbatida A.I.Gersen rashk haqida gapirib, «Rashkni bir yoqlama qat‘iy yo‘q qilib yuborish, shu bilan birga ayolga, erkakka bo‘lgan sevgini jinsga bo‘lgan sevgi bilan aralashtirib, uni butunlay yo‘q qilib yuborishdir», — degan edi. Sevuvchi va shu sevgan odamiga nisbatan hech qachon rashkini his qilmagan, sevgan odami xulqiga nisbatan bee‘tibor munosabatda bo‘lgan birorta odamni topish qiyin, rashk bu sevgini himoya qiluvchi vosita sifatida vujudga kelgan. Shuning uchun ham uni faqat sevgi bilan birgalikdagina yo‘qotish mumkin. Shoir Uyg‘un aytganidek:

Rashkim uchun nolima, jonim,
Rashk sevgiga soqchi doimo....

Umuman olganda, albatta rashkchi odamlarga havas qilib bo'lmaydi. O'zidagi bu hisni yenga olmaydigan odamlar – doimo xavotirda, hadikda yashaydigan baxtsiz odamlardir. Ularning ikki karra baxtsizligi yana shunda hamki, ular bir vaqtning o'zida ham jabrlanuvchi, ham azob beruvchi, ham zo'ravon, ham quldirlar.

Ishonchsizlik, doimo xiyonat, shubhalanish muhitini yuzaga keltirar ekanlar, bundan ularning o'zlari birinchi bo'lib azoblanadilar. Ular arzimagan bahona tufayli yoki uning bo'lishi yoki bo'lmasligidan qat'i nazar yolg'iz yoki oshkora janjallarni yuzaga keltirishga doimo tayyor bo'lishadi. Bu esa ularning uyda, ishda va butun hayotida boshqa odamlar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlariga, jumladan jinsiy munosabatlariga ham jiddiy ta'sir qiladi va ko'pincha ayanchli psixologik xastaliklar, shikastlanishlarga ham olib kelishi mumkin. Bunday holatlarda har ikki jins vakillari o'z juftiga rashk qilish uchun hech qanday sabab, asos, bahona yaratib qo'ymaslikka harakat qilishi, ayniqsa «sevgining uyqu» davrida ko'proq iliqlik, sabr-toqat, chidamlilikni namoyon qilishlari lozim bo'ladi.

Psixologlar rashkni zolimona rashk va «izzat-nafsi poymol qilinganlikdan» bo'ladigan rashklarga farqlaydilar. Zolimona rashkni odatda xudbin (egoist), qaysar, zolim, hissiy sovuq va begonalashib ketgan, yotsiraydigan, yetarlicha avtoritar odamlar yuzaga keltiradilar. Bunday odamlar odatda turmush o'rtoqlariga faqat bir buyumdek, o'z manfaati, farog'atini qondirish obyekti, o'z mulkidek qaraydilar. Ularda boshqa odamning shaxsiy xususiyatlarini sezish, hurmat qilish qobiliyatlari rivojlanmagan bo'ladi. Izzat-nafsi, sha'ni kamsitilganlikdan bo'ladigan rashk – bu odatda hayajonlanadigan, har narsadan gumonsirayveradigan, o'ziga ishonmaydigan, xavf-xatar va noxushliklarni bo'rttirishga moyil, nuqsonlar kompleksidan jabrlanuvchi odamlarga xosdir. Ularning rashkiunchalik g'azabli, qahrli bo'lmasligi, biroz yumshoqroq namoyon bo'lishi mumkin. Biroq uning ham o'z mohiyatiga ko'ra oilaviy baxt uchun zahri, zarari kam emas.

Ba'zan «undalma» deb nomlanuvchi rashk ham farqlanadi. Bunday rashkning manbayi bo'lib, o'zining turmush o'rtog'iga vafosizligini unga ko'chirish yoki o'zining ishonchsizligi turmush o'rtog'iga doimo xiyonat qilishga tayyorligi kabilar xiz-

mat qilishi mumkin. Bu, ayniqsa nikohdan oldingi «boy» seksual tajribaning xavfli asoratlaridan hisoblanadi.

Lov etib yongan rashk mumkin bo'lgan barcha «fakt»larning «qulog'idan» tortib, turmush o'rtog'ining eng arzimagan, beozor xatti-harakatlari, qiliqlarini o'zining yovuz, zolim, tuban nurlari, ranglari bilan talqin qilib, arzimagan narsalarni shubha botqog'iga bulg'ab, ulardan o'zining namoyon bo'lishi uchun qo'shimcha quvvat manbayi sifatida foydalanadi. Ishdan ozgina kechikib qolish, do'stlar davrasidagi beozor imo-ishora yoki so'z allaqachon unutib yuborilgan bolalik ishtiyoqlari va shu kabi hayot ikir-chikirlarining hammasi g'oyat darajada puxtalik bilan o'z turmush o'rtog'iga qarshi, uni ayblovchi aktlarning qalin tomlariga yig'iladi.

Qizig'i shundaki, bunday rashkka qarshi kuchli asoslangan ta'sirlar ham, uni to'xtatib qolishga urinishlar ham qaytanga uni kuchaytiradi va yanada qizdirib yuboradi. Xuddi qopag'on itni zanjirga bog'lab qo'yilsa battar darg'azab bo'lib, «tartib buzuvchilariga» tashlanishi va hurishi, ichib olgan janjalkash odamning qo'lidani tutib turilsa, o'z tajovuzkorligini yanada kuchli namoyon qilganidek, rashk ham shunga o'xshash holatni namoyon qiladi. Aynan shuning uchun ham umuman «taqiqlangan meva»ning mazasi odamlar uchun shu qadar shirin tuyulsa kerak, balkim.

5.9. RASHK HISLARIDAN XALOS BO'LISH YO'LLARI

Rashk hislaridan qutulishda psixologlar quyidagi yo'llarni tavsiya etishadi:

1. Rashk hislarini boshdan kechirayotgan shaxs yaxshilab mulohaza qilishi, o'z rashk hislariga tanqidiy qarashi, rashk hislarini yuzaga keltirayotgan sabablar reallikdan ancha yiroq bo'lib, aksariyat hollarda rashk qiluvchi shaxs o'zini tasavvur xayoli ekanligini tushunib yetishi. Haqiqatni tushunib yetgan shaxs tegishli xulosa chiqarib rashk hislari azobidan qutulish imkoniga ega bo'ladi. Mazkur uslubni qo'llash har bir inson qo'lidani kelavermaydi. Buning uchun shaxs yetarli aql, kuchli analitik tafakkur egasi bo'lishi kerak.

2. Rashkni yuzaga keltiruvchi shaxsni ijobiy sifatlarini o'zida mujassam qilib, o'z «raqibi»ni sog'lom raqobatda ma'

naviy, axloqiy, aqliy, madaniy jihatdan magʻlub qilish yoʻli orqali oʻz sevgilisini qaytarish (agar shunday real raqibni oʻzi boʻlsa). Bu uslubni qimmatli tomoni shundaki, sevgilisini qaytara olmagan taqdirda ham shaxsda ijobiy oʻzgarishlar, qimmatli sifatlar shakllanadi. Ular esa yoʻqotilgan sevgilisidan koʻra afzalroq muhabbat obyekti uchratishga xizmat qiladi.

3. Rashk hislari asosli faktlarga tayangan, avvalgi tavsiyalarimizdan foydalanish imkoni boʻlmagan shaxslar azob beruvchi rashk hislaridan quyidagicha qutulishlari mumkin. Rashk qilayotgan kishingiz shaxsini muhabbat koʻzoynagini yechib, tanqidiy koʻz bilan oʻrganing. Oqibatda uning shaxsida qator kamchilik va nuqsonlar borligiga iqror boʻlasiz. Shuncha kamchiliklari boʻlgan, Sizga bevafoqlik qilayotgan shaxs uchun azob chekishingiz oʻrinlimi? Bu shaxs sizning begʻubor, muqaddas sevgi hislaringizga loyiqmi? Mazkur vaziyat oʻz vaqtida koʻzingizni ochib, uni haqiqatan kim ekanligini toʻgʻri idrok qila olishingizga minnatdor boʻling. Sizdek vafoli, axloq-odobli insonni qadriga yetmagan shaxs sevgi-muhabbatingizga loyiq emasligiga ishonch hosil qiling. Agar yuqoridagi fikrlarimiz Sizni holatingizga toʻgʻri kelsa, demak rashk qiluvchi shaxsning obyektiv bahosini berish natijasida uni idrokingizda qadrsizlantiradi. Qadrsizlangan shaxs odatda rashk qilinmaydi va Siz rashk hislaridan xalos boʻlasiz.

Bilimlarni tekshirish uchun savollar:

1. Sevgi haqida qanday mulohazalar, rivoyatlar, taʼriflarni bilasiz?
2. Sevgining qanday turlari mavjud?
3. Sevgi hissi va yosh oʻrtasida qanday bogʻliqliklar mavjud?
4. Yigit va qizlarda sevgi tuygʻusining ifodalanishida qanday tafovutlar mavjud?
5. Qizlar va yigitlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarning qanday turlari farqlanadi?
6. Muhabbat bosqichlari qanday namoyon boʻladi?
7. Muhabbat va inson mijozi oʻrtasida qanday bogʻliqliklar mavjud?
8. Muhabbat belgilari qanday namoyon boʻladi?
9. Sevgining fasliy oʻzgarishi nimalardan iborat?
10. Rashk hissi nima? Uning sevgiga qanday taʼsiri bor?

Mavzuga oid jumboqlar

1. Avval sog‘ ko‘zlarga rangli parda qoplab, so‘ngra uni yaxshi, ravshan, real ko‘radigan qiluvchi xastalikning nomini toping.

(sevgi-muhabbat)

* * *

2. Eng ko‘p tarqalgan ko‘z kasalligini toping.

(sevgi-muhabbat)

* * *

3. Qaysi og‘ir xastalikdan kishilar tuzalishni istamaydilar?

(sevgi-muhabbatdan)

* * *

4. «Muhabbat – bamisoli baland tog‘ cho‘qqilariga o‘xshaydi. Ular zabt etilganidan so‘ng pastga tushishdan o‘zga chora qolmaydi» iborasini psixologik tahlil qiling va muhabbat hislariga xos xususiyatlarni sanab o‘ting.

* * *

5. «Muhabbat – bu erkak kishini yagona ayol bilan qoniqish va cheklanishga bo‘lgan intilishi» iborasini psixologik tahlil qilib, mohiyatini ochib bering.

* * *

6. «Muhabbatda baxtli bo‘lish uchun ko‘rishdan qolish shart emas, faqat vaqti-vaqti bilan ko‘zni yumib turish kerak» iborasini psixologik tahlil qilib, mohiyatini ochib bering.

Aforizmlar:

● Muhabbat eng qadimiy va navqiron tushuncha. U shungacha qarigan emas, bundan keyin ham qarimaydi. U hamisha oftob yanglig‘ qalbga yaqin, ammo har bir zamon, har bir avlod va har bir qalb uni yanada yangi, mazmunli, ko‘rkam va fayzli bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

T. Qorayev

● Muhabbat insoniyatni hayvonot olamidan sugʻurib olgan kuchdir.

Z. Freyd

● Muhabbat degan narsa juda oz kishiga nasib boʻladir, on bir durri bebahodir.

A. Qodiriy

● Yaqin odamga nisbatan boʻladigan sevgining ikki turi mavjud. Agar biz boshqa odamga nisbatan boʻlgan oʻzimizning sevgi hissimizni sevsak – bu sevgi, agar biz boshqaning bizga nisbatan boʻlgan sevgisini sevsak – bu doʻstlik.

V. Klyuchevskiy

● Muhabbatning ming qirrasi bor, har biri oʻz nuri, oʻz gʻussasi, oʻz baxti va oʻz totli boʻyiga ega.

K. Paustovskiy

● Xushtoringizdan hech qachon u sizni nima uchun sevishligini soʻramang: agar u bu haqda oʻylab koʻrgudek boʻlsa, balkim sizda sevishga arzigulik xislatning oʻzi topilmay qolishi mumkin.

K. Melixan

Eng yaxshi kun – bugun.

Eng katta xato – umidsizlikka berilish.

Eng katta ojizlik – nafrat.

Eng katta tinchlikni buzuvchi – koʻp gapiradigan odam.

Eng xavfli odam – yolgʻonchi.

Eng katta hayot – hamjihatlik hissi.

Sen berishing yoki olishing mumkin boʻlgan eng katta sovgʻa – sevgi!

* * *

● Sevish degani – bu oʻzimizdagi va atrofimizdagi minglab toʻsiqlarni yengib oʻtish deganidir.

J. Anuy

● Erkak kishi ayolni chanqoqdan azob chekib suvga intilayotgan yo‘lovchidek sevadi. Undan o‘z hirsini (ehtiyojini) qondirib bo‘lganidan so‘ng u o‘zi talpinayotgan predmetga qiziqishini yo‘qotadi.

● Ayol kishi erkakni issiqdan toliqib salqinga intilayotgan yo‘lovchidek sevadi. U hatto o‘zi xohlagan narsaga erishsa ham u sevgiga to‘ymaydi.

Syuy Syuemo. O‘rta asr xitoy aforizmi

Nokas kishi hech mahrami jon bo‘lmas,
Sho‘r yer uzra bog‘-u guliston bo‘lmas,
Kim dardi diloromni sevmasa jondek,
Hargiz o‘zganing dardina darmon bo‘lmas.

Hofiz Xorazmiy

● Rashk bu boshqalardan ko‘ra o‘ziga ko‘proq azob berish san‘atidir.

A. Dyuma

● Rashkdan maqsad – xotinni yomon yo‘lga kirishining ol-dini olishdir.

Ahmad Donish

● Qalbida olovi yo‘q ayolning o‘zi yo‘q, uni faqat yoqa bilish malakasiga ega bo‘lmagan erkaklar bor.

G‘. Shoumarov

Mavzuga oid latifalar

Bir erkak boshqasidan so‘rayapti:

– Agar sen, seni hali ham kechiradigan, senga juda mehribon bo‘ladigan, sen uchun hamma narsaga tayyor ayolni uchratib qolsang, unga nima deysan?

Ikkinchi erkak biroz o‘ylanib turdi-da va javob berdi:

– «Assalomu alaykum, oyijon!».

* * *

– Xotinimning tug‘ilgan kuniga nima sovg‘a tayyorlab qo‘yishni bilolmayapman. U unchalik qimmat bo‘lmasa va shu bilan birga xotinimni xursand qilsa.

– Unga o‘nta imzosiz ishqiy maktub yoz!

* * *

Yigit qizga dedi:

– Jonginam, sizsiz hayot menga qorong‘i. Agar turmushga chiqsangiz osmondagi yulduzni olib ber, desangiz olib bera-man.

– Yulduzning hech hojati yo‘q, – dedi qiz. – Maoshingiz-ning bir tiyini nari-beri qilmay olib kelib tursangiz, kerakli narsani o‘zim sotib olaveraman.

* * *

– Yaxshi qiz, men bilan kinoga tushishni istamaysizmi?

– Istamayman.

– Siz o‘ylamang, men har qanday qizni ham kinoga taklif qilavermayman.

– Men ham har qanday yigitga yo‘q deyavermayman.

VI B O B. NIKOH OLDI OMILLARI XUSUSIYATLARI VA ULARNING NIKOH MUSTAHLKAMLIGIGA TA'SIRI

*Avval g'ishtin qiyshiq qo'yarkan me'mor,
Yulduzga yetsa ham qular bu devor.*

Mirzo Bedil

6.1. NIKOHGA YETUKLIK XUSUSIYATLARI

Oila deb atalmish muqaddas makon, «oila qasri»ning mustahkamligi shu qasrning poydevori bo'lmish nikoh oldi omillari xususiyatlariga, ularning qay darajada to'g'ri va mustahkam qo'yilishiga bog'liq. Agar shu poydevor yetuk, mustahkam bo'lsa, uning ustida qurilgan imorat ham ko'rkam, yorug', unda istiqomat qiluvchilarga qulaylik, xotirjamlik, tinchlik, huzur-halovat bag'ishlaydigan bo'ladi.

Hech bir devor yoki uy poydevorsiz bo'lmaganidek, Sizning qurajak oilangizning ham o'ziga xos poydevorlari bor. Ular shu oilaning yuzaga kelishiga, qurilishiga asos bo'lgan nikoh oldi omillaridir.

Agar shu nikoh oldi omillarining oilani yuzaga kelishiga ta'siri noo'rin bo'lsa, u shoshilinch, bo'sh, qiyshiq qurilsa, uning ustiga o'rnatilgan oila imoratining devori ham qiyshiq va omonat bo'lib boraveradi va u shu imoratning bir kuni kelib qulashi, buzilib ketishi xavfini tug'diradi. Bunday poydevor ustiga qurilgan imorat qulab tushmagani, buzilib ketmagani taqdirda ham unda istiqomat qiluvchilarga xotirjamlik, tinchlik, quvonch baxsh eta olmaydi. Ular doimo qandaydir bir xavotirda, hadikda, noqulaylikda, xijolatda yashashlariga to'g'ri keladi. Xo'sh, shu poydevorlar, ya'ni nikoh oldi omillari nimalardan iborat?

Gap nikoh oldi omillari haqida borar ekan, shuni ta'kidlab o'tish joizki, nikoh oldi omillari u yoki bu nikohning yuzaga kelishiga asos bo'lgan ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy, biologik, fiziologik, ma'naviy, axloqiy va bugungi kunlarimiz uchun eng muhim bo'lmish psixologik omillarni o'zida mujassamlashtirgan, ko'p qirrali omillar kompleksidan iborat bo'lib, oila qurayotgan yoshlarning, shu o'zlari qurayotgan oilaviy hayot-

Nikon oldi omillari:

1. Oilaviy hayotga yetukligi.
2. Oila qurish motivlari.
3. Nikohgacha tanishish muddati.
4. Nikoh qurish yoshi.
5. Nikoh qurish shartlari.
6. Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari.

lariga qay darajada «yetilgan»liklarini belgilab beradi. Bu yerda eng muhimi shu yoshlarning oilaviy hayotga, nikoh talablariga qay darajada javob bera olishligi nazarda tutiladi.

Nikohga yetuklik tushunchasi ham o'z navbatida o'ta murakkab va nisbiy tushunchadir. Chunki odam doimo rivojlanib, takomillashib boruvchi, kasb-hunar faoliyatida yoki ma'naviy va axloqiy rivojlanishida muntazam yangidan yangi cho'qqilarga erishib boruvchi mavjudotdir. Agar odamni u yoki bu faoliyatga «to'la yetukligi» haqida gapiradigan bo'linsa, demak bu uning ma'lum bir chegaraga erishgani va undan ortiq rivojlanish mumkin emasligini bildiradi. Shuning uchun ham odamning nikohga yoki biron-bir faoliyatga yetukligi haqida gapirilganda «yetuklik» tushunchasi tom ma'noda o'rinli bo'la olmaydi. Shuning uchun ham odamning «yetukligi», ayniqsa nikohga, oilaviy hayotga «yetukligi» haqida gapirilganda bu tushunchadan ma'lum bir umumqabul qilingan standart, o'rtacha me'yor, ma'lum bir shartli «o'lchov birligi», ko'rsatkichlar va shu kabilar sifatidagina foydalaniladi.

Masalan, barcha o'quv yurtlari (maktab, litsey, kollej, institutlar) uchun bitirish imtihonlari (davlat imtihonlari tizimi, diplom ishlari himoyasi tizimlari kabilar) mavjud bo'ladi va ular yordamida bitiruvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'rtacha bilimlar va malaka yig'indisini aniqlash mumkin bo'ladi. Bu esa ularga keyinchalik yana o'qishni davom ettirish yoki ma'lum bir mutaxassislik bo'yicha ishlashi mumkinligi haqida ma'lum bir huquq beradi. Shu nuqtayi nazardan olinganda

«yetuklik» — rivojlanishning ma'lum bir bosqichi, fazasi, chegarasiga yetilganlikning sifatiy va miqdoriy xarakteristikasini ma'lum bir aniqlikda belgilab beruvchi ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Odamning nikohga, oilaviy hayotga yetukligi masalasi esa o'ta murakkab biron-bir qat'iy me'yor bilan o'lchab bo'linmaydigan individual xarakterga ega bo'lgan ko'rsatkichdir.

Shu keltirib o'tilganlarning o'ziyoq nikoh oldi omillari qay darajada murakkab xarakterga ega bo'lgan muammolardan ekanligini ko'rsatib turibdi.

Hozirgi zamon oilasining ijtimoiy psixologik muammolarini yoritishga bag'ishlangan psixologik adabiyotlarda nikoh oldi omillarining turlicha shakllari, ko'rinishlari farqlanadi. Quyida Sizning e'tiboringizga ularning ayrimlari haqidagi ma'lumotlarni havola etamiz.

Nikoh oldi omillari qatoriga shu oila qurayotgan yoshlarning: oilaviy hayotga yetukligi; ularning oila qurish motivlari; ularning oila qurishgunlariga qadar bir-birlarini tanishlik muddati (qancha vaqt bir-birini tanishligi) shartlari va sharoitlari; ularni o'zlarining bo'lg'usi oilaviy hayotlari haqidagi tasavvurlari kabilarni kiritish mumkin. Albatta, bu omillarning har biri turli yoshlarda turlicha xarakterda bo'lishi mumkin, shu bilan birga ularning har biri o'z navbatida yana bir necha turlarga farqlanadi.

Masalan, nikohga yetuklik deyilganda oila quruvchi yoshlarning: jismoniy (fiziologik), jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik kabi yetuklik jihatlarini farqlash mumkin. Bularning orasida huquqiy, jinsiy yetuklik ko'rsatkichlari yetarlicha aniq alomatlarga, belgilarga ega bo'lgan va bular haqida tegishli huquqiy, tibbiy, psixologik adabiyotlarda ko'plab ma'lumotlar berilgan jihatlar bo'lsa, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik jihatlar biroz murakkabroq, qat'iy bir ko'rsatkich, chegaraga ega emasligi bilan xarakterlanadi.

Jinsiy yetilish qat'iy jinsiy ehtiyojlarning shakllanishiga olib keladi. Bu davrga kelib bolalarda ikkilamchi jinsiy alomatlar namoyon bo'la boshlaydi. Jinsiy sekretsiya bezlarining faolligi ortadi. Qiz bolalarda oylik sikllari (menstruatsiya), o'g'il bolalarda pollyutsiyalar ro'y bera boshlaydi. Boshqacha qilib aytganda, ularda pubertat davr boshlanadi. (Bu davr haqida va uning xususiyatlari haqida 4-mavzuda batafsil ma'lumotlar

berilgan). Demak bu davrga kelib bolalarning moddiy va ma'naviy qiziqishlarining o'sib borishi bilan bir qatorda jinsiy ehtiyojlar shaxs faolligining kuchli manbalaridan hisoblanib, u turli psixologik va ijtimoiy shakllarda namoyon bo'la boshlaydi.

Jinsiy maylning, jinsiy ehtiyojning yuzaga kelishi odamni biologik rivojlana boshlashining o'ziga xos bosqichidir. Ular bola ruhiyatining rivojlanishiga, uni shaxsining shakllanishiga, hayot faoliyatining boshqa jihatlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

Jinsiy hayotning ko'plab muammolarini nafaqat yoshlarga, balki uzoq vaqt oila qurgan, farzandli bo'lgan katta yoshlilarga ham tushuntirib o'tish lozim bo'ladi, chunki ularda ham shu asosda ko'plab jiddiy nizolar yuzaga kelishi mumkin. Jinsiy munosabatlar masalasi o'ta nozik masaladir, bu borada ko'pincha «yolg'on, bachkanalarcha uyatchanlik»ka duch kelinadi. Ba'zi bir ota-onalar va o'qituvchilar hatto maorif rahbarlari ham maktabda jinsiy tarbiya berish masalasiga e'tiroz bildiradilar va «Jinsiy tarbiya, jins masalasiga oid barcha zarur ma'lumotlar biologiya kurslarida berilgan, buning ustiga «otabobolarimiz bunday jinsiy savodxonliksiz ham binoyidek yashaganlar», — qabilida mulohaza yuritadilar. Albatta, bunday nuqtayi nazar o'ta qoloq, bugungi kun nikoh-oila munosabatlari talablarini, hozirgi zamon oilasi vazifalarini hisobga olmay chiqarilgan xulosalardir. Aynan shunaqa yo'llar bilan yoshlarga jinsiy tarbiyadek o'ta nozik va zarur masalalar yuzasidan beradigan har qanday sanitar-gigiyenik oqartuv ma'lumotlarning ahamiyati butunlay kamsitib kelinmoqda. Bu esa millionlab o'smirlarning jinsiy balog'atga yetishish vaqtida g'aflatda qolishlariga va buning oqibatida ayrim hollarda hayotda tuzatib bo'lmaydigan xatolarga yo'l qo'yishiga olib kelishiga sabab bo'lmoqda.

Hech nima bilan asoslanmaydigan xavotir, hadik, gohida esa haqiqiy vahima zaminida o'smir xulqida turli xil og'ishlar, nerv-fiziologik buzilishlar yuzaga kelishi mumkin. Bularning barchasi sanitar-gigiyenik tarbiyaning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi va jinsiy tarbiyani berilmaganligining natijasidir. Bu masala, ayniqsa bizning etnosimizda o'ta jiddiy mohiyat kasb etadigan masaladir.

Jinsiy tarbiya masalasiga ko'pincha yo alohida e'tibor talab qilinmaydigan va hech qanday qiyinchilikni yuzaga keltirmay-

digan, har bir yosh guruhi uchun osongina o'zlashtirish mumkin bo'lgan, yoki o'ta shaxsiy, intim, ko'pchilik orasida, ayniqsa bolalar orasida muhokama qilib bo'lmaydigan masala tarzida qaraladi. Shu kabi mulohazalar qator mamlakatlarda, ayniqsa sobiq ittifoqda jinsiy tarbiyaga oid materiallarni, bunga taalluqli tadbirlarni maktab dasturidan chiqarib tashlanishiga asos bo'lgan. Bu o'rinda jinsiy tarbiyani, organizmning faoliyati haqidagi bugungi kunda har bir odam o'zlashtirishi, bilishi zarur bo'lgan sanitar-gigiyenik, psixogigiyenik ma'lumotlar bilan uzviy bog'liq tarzda qaralishi maqsadga muvofiqdir.

Oilaviy hayotda esa jinsiy hayot psixologiyasi haqidagi bilimlarga ega bo'lish o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Turli mutaxassislar tomonidan berilgan ma'lumotlarni kompleks tahlil qilgan holda aytish mumkinki, har bir to'rtinchi ajralishgan er-xotinlarda (ajralishlarning 29%ida) jinsiy mutanosiblikning u yoki bu tarzda buzilishi (er-xotinning jinsiy nomutanosibli) sabab bo'lmoqda.

Albatta, o'zaro sevgi, ishonch va hurmat hislari, qiziqishlar va niyatlarning umumiylik hislari qisqa vaqt oralig'ida yuzaga kelgan va shunga ko'ra shoshilinch oila qurgan juftlarga jinsiy hayot psixologiyasi borasidagi bilimlar o'z-o'zidan yordam berolmasligi mumkin. Bunday tezlikda, qisqa vaqtda (sovchilar, qarindoshlar orqali bir-ikki haftadayoq) yuzaga kelgan oilalar miqdori, ayniqsa, so'nggi yillarda bizning millat vakillari o'rtasida ortib bormoqda. Yoshlarning bir-birlariga nisbatan bo'lgan yoqtirishi va ijobiy emotsional hislari kompleksiz bu bilimlarning samarasi past bo'ladi. Ular faqat er-xotinlar bir-birlarini yoqtirganlari, bir-birlari uchun jozibali bo'lgan holatlardagina, er-xotinlarining intim hayotini muvofiqlashtiradi. Boshqa tomondan nikohdagi jinsiy hayot psixogigiyenasi muammolaridan qandaydir «bo'lmag'ur, uyat narsa» sifatida voz kechish ham kerak emas. Chunki, ko'pchilik hollarda jinsiy hayot psixogigiyenasi sohasidagi ilmiy bilimlar yosh er-xotinlarga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan ayanchli xatolardan qutulishga va shu bilan o'z nikohlarini saqlab qolishlariga yordam berishi mumkin.

Shunday qilib, jinsiy yetuklik odam anatomiyasi va fiziologiyasi nuqtayi nazaridan yetarlicha aniq va ravshan bo'lgan hodisadir. Biroq uning psixologik, axloqiy jihatlari o'ta murakkab. Shuning uchun ham odamning nikohga jinsiy

yetukligi deyilganda uning fiziologik nuqtayi nazardangina yetilishini nazarda tutish jinsiy yetuklikning to'liq mohiyatini bildirmaydi, bundan tashqari odam jinsiy hayot psixogigiye-nasi borasida ham zarur ilmiy psixologik bilimlarga, to'g'ri tasavvurlarga ham ega bo'lmog'i zarur. Bu esa, shubhasiz, alohida e'tibor, maxsus tayyorgarlik, o'qitishni talab qiladigan jarayondir.

Yoshlarni nikohga jinsiy yetuklik masalasidan tashqari yuqorida keltirib o'tilganidek yana bir nechta ijtimoiy yetuklik turlarini farqlash mumkin. Bular: jinsiy, fuqarolik, kasb-hunar, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy va psixologik yetuklik-lardir. Bularning orasida yoshlarning jinsiy (fiziologik) yetukli-gi boshqalariga qaraganda ancha erta amalga oshadi, quyida bu masalalarga bog'liq ravishda yana qanday muammolar majmuining yuzaga kelishi mumkinligi haqida to'xtalib o'tamiz.

Fuqarolik, huquqiy yetuklik — bu odamning huquqiy ji-hatdan balog'atga yetish yoshi bilan, u huquqiy jihatdan oila qurish, farzand ko'rish huquqiga ega bo'lgan shaxs bo'lib hisoblanishi bilan belgilanadi. Bizning mamlakatimizda bu 18 yosh deb ko'rsatilgan. Bu vaqtda u Konstitutsiyada belgilangan barcha huquq va majburiyatlardan foydalana oladigan bo'ladi. 18 yoshni shaxsning huquqiy yetuklik yoshi deb hisoblash mumkin.

Kasb-hunar yetukligi — bu ham ancha murakkab tushun-chadir. Uning murakkabligi shundaki, bir tomondan u qanday-dir bilim yurtini, o'quv kurslarini bitirish, ya'ni ma'lum bir ish turini bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus bilimlarga ega bo'lish bilan belgilanadi. Biroq odam u yoki bu bilim yurtini (kollej, litsey, texnikum, institutni) bitirganidan keyin o'zi tan-lagan kasbi bo'yicha bir necha yil ishlab ko'rishi kerak bo'ladi va shundan keyingina uning kasb-hunar yetukligi haqida gapirish mumkin.

Shu bilan birga ba'zi bir kasblar bo'yicha 19—20 yoshlar-dayoq kasb-hunar yetukligiga erishish mumkin bo'lsa, boshqalarda masalan xirurg-vrachlikda kechroq 29—30 yoshga yetganda bunga erishish mumkin.

Shaxsni yetukligining yana bir jihati **ijtimoiy-iqtisodiy yetuklik**dir. Bunda odamning o'zini va o'z oilasini moddiy ji-hatdan mustaqil ta'minlay ola bilishligi nazarda tutiladi.

Yoshlarni oila qurishlarida, ularning iqtisodiy mustaqilligi alohida ahamiyatga ega. Bu oʻrinda ham turlicha yosh chegaralari mavjud, yoshlarninig ayrimlari 18—19 yoshidayoq ota-onasi oilasidan iqtisodiy mustaqillikka erishishi mumkin, boshqalari esa 25—30 yoshlarida ham ota-onalarining moddiy yordamidan foydalanadilar.

Bu yetuklik jihatlari orasida shaxsning maʼnaviy va axloqiy yetukligi haqida gapirish eng murakkabidir. Chunki bu jihat haqida aniq bir mezon va tavsif hozircha ishlab chiqilmagan.

Shunday qilib, «yetuklik» tushunchasi oʻzicha koʻplab jihatlarni mujassamlashtiradi. Shuni aytib oʻtish joizki «yetuklik» tushunchasi, albatta maʼlum bir hayotiy tajriba bilan, yaʼni «hayotiy bilimlar» bilan uzviy bogʻliqdir. «Hayotiy bilimlarni oʻzlashtirish», «Hayot universitetlaridan» oʻtishning ham oʻziga xos individual xususiyatlari mavjud. Kimdir 20 yoshidayoq «hayotni yaxshi bilib oladi», kimdir 30 yoshida ham bolaligicha qolaveradi. Bunga mavjud ijtimoiy sharoit, jamoatchilik va ijtimoiy tartibning taʼsiri katta. Maʼlumki, oldingi vaqtlarda, ayniqsa urush yillari bolalar kattalar ham hamma vaqt uddalay olavermagan hayotiy qiyinchiliklarni boshidan kechirganlar. U vaqtlarda 12—14 yoshdanoq bolalar onalariga oilani taʼminlashda yordam berganlar. Shuningdek shahar va qishloq joylarda istiqomat qiladigan, kam farzandli va koʻp farzandli oilalarda, nuklear yoki koʻp tabaqali oilalarda oʻsayotgan bolalarning ham oilani moddiy, ijtimoiy taʼminotiga hissa qoʻshish, bu ishlar bilan shugʻullanish muddatlari va miqdori turlichadir. Hayotni bilish, hayotiy tajribalar turli individlarda turlicha jadallikda amalga oshishi mumkin va bu oʻrinda qandaydir bir yosh, vaqt oraligʻini koʻrsatishi mutlaqo mumkin emas. Buning ustiga hayotni, bizni oʻrab turgan atrof olamni bilish oʻz navbatida cheksizdir.

Shunga qaramay ijtimoiy va iqtisodiy yetuklikning maʼlum bir minimum chegaralarini belgilab olish mumkin, yaʼni shunday hayotiy tajriba, bilimlar «minimumi» mavjudki, ularsiz biron-bir yoshni, yigit-qizni tom maʼnoda yetuk deb hisoblab boʻlmaydi.

Mana yuqorida keltirib oʻtilganlarning oʻziyoq «yetuklik» tushunchasi naqadar keng tushuncha ekanligini koʻrsatib turibdi. Shunga qaramay biz undan foydalanishga majburmiz.

Chunki u nikohning mustahkamligini belgilab beruvchi muhim shart-sharoitlarni, vaziyatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Gap shaxsning **psixologik yetukligi** haqida borgudek bo'lsa, bunda dastavval uning turli hayotiy vaziyatlar va sharoitlarni hushyor baholay olishi nazarda tutiladi. Bu hushyorlik amaliylik, voqelikni to'g'ri baholay olish shaxsda o'zining yutuq va kamchiliklarini, bilim, malaka va qobiliyatlarini yetarlicha obyektiv baholay olishda ham namoyon bo'lishi kerak. Afsuski, ko'pincha yoshlar o'z qobiliyatlarini orttirib baholab, o'z oldilariga erishib bo'lmaydigan maqsadlarni qo'yib olishi hollariga duch kelinadi. Ayniqsa, oilaviy hayotni tasavvur qilish, unda o'z o'rnini baholash masalasida yoshlarimiz ko'proq xatoga, o'zlarini orttirib baholashga, oilaviy hayotdan mumkin bo'lganidan ko'proq narsani kutish hollari ko'proq kuzatiladi. Natijada muvaffaqiyatsizliklar, pushaymon bo'lishlar, asab buzilishlar yuzaga keladi. Psixologik yetuk shaxs esa aksincha, o'z oldiga erishishi muqarrar bo'lgan, bunga imkoniyatlari yetarli bo'lgan maqsadlarni qo'yadi, o'z hayot yo'lini va unga erishish vositalari va usullarini to'g'ri belgilaydi. Bunday shaxs o'z hissiyoti, kechinmalarini yetarlicha yaxshi nazorat qila bilishligi, ya'ni ichki intizomining yuqori rivojlanganligi bilan xarakterlanib turadi. Psixologik yetuklik boshqa odamlarning xohish, istaklari, kechinmalarini tushunish bilan ma'lum darajada bog'liq. Bu o'z navbatida muloqotning, hamkorlikning yaxshi yo'lga qo'yilishiga, oilada, turli guruhlarda gormonik munosabatlarning o'rganilishiga imkon beradi. Turli yoshdagi, mansab, lavozim, toifadagi odamlar bilan, qiziqishi, odati, ta'bi, turmush tarzi mutlaqo boshqacha bo'lgan odamlar bilan o'rinli munosabatda bo'la olish — shaxsning psixologik yetukligining asosiy xususiyatlaridan biridir.

Yoshlar oila qurayotganlarida bu xususiyatlar hal qiluvchi bo'lib hisoblanadi. Albatta, bunday qobiliyatlar bir kunda shakllanmaydi. Ular oldingi hayoti davomida unga berilgan tarbiya ta'sirida asta-sekinlik bilan shakllanadi. Psixologik yetuklik, shaxs xulqini turli yashash sharoitlariga moslashuvchanligida ifodalanadi. Psixologik yetuklik shaxsning boshqa odamlarga nisbatan bo'lgan ijobiy munosabatlari: hamdardlik, hamfikrlik, g'am-tashvishga sherik bo'la olish, o'zaro yordam kabilar tarzida namoyon bo'la oladigan ma'naviy sifatlarning tarkibiy jihatlarini o'zida biriktiradi. Psixologik yetuklikning

muhim mezonlaridan biri shaxsda oilaviy muammolarni adolatli hal etishga xizmat qiluvchi o'z mustaqil fikri, qarashi, pozitsiyasi bo'lishi, zarur bo'lganda oila manfaatida o'z qarashlarini ota-onalari oldida himoya qila olishidir.

Nikoh oldi omillari orasida eng xarakterlilaridan yana biri oila qurayotgan yoshlarning yosh xususiyatlaridir. Chunki bu ko'rsatkichlar ham nikoh mustahkamligida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Quyida shular haqida to'xtalib o'tamiz.

6.2. NIKOH YOSHI XUSUSIYATLARI

Demografik nuqtayi nazardan olinganda, oila qurish ma'lum bir kishilarning emas, balki butun bir avlodning oila qurishi nazarda tutiladi. Bu o'rinda to'liq ishonch bilan aytish mumkinki, avlod yosh jihatdan qanchalik katta bo'lsa (uning yoshi qanchalik yuqori bo'lsa), u biz ko'rib chiqayotgan jihatlarining har biri bo'yicha ko'proq yetuk bo'ladi. 20—24 yoshdagi yosh guruhini o'ziga birlashtirgan yosh guruhi, 20 yoshdan kichik bo'lgan avlodga qaraganda ko'proq hayotiy tajribaga ega bo'ladi. Birinchi avlod vakillarida ijtimoiy-iqtisodiy yetuklik darajasi yuqoriroq bo'ladi, chunki aynan shu yoshda ko'pchilik yoshlar o'rta yoki oliy o'quv yurtlarini tamomlagan, u yoki bu kasb-hunarni egallagan bo'ladilar. 25—29 yoshlarda esa 20—24 yoshdagilarga qaraganda, ijtimoiy-iqtisodiy va kasb-hunar yetukligi bo'yicha yanada yuqoriroq darajaga ega bo'ladilar. Hozirgi zamon demografiyasida keng foydalaniladigan ushbu ko'rsatib o'tilgan kabi statistikalar va yosh guruhlari yoshlarning ijtimoiy yetukligining turli jihatlari-ni ijtimoiy psixologik tahlil qilish uchun juda noqulay hisoblanadi. Chunki hech kimga sir emaski, bugungi kunda yoshlarning kattalashuvi, voyaga yetishi juda jadal amalga oshmoqda. Yuqoridagicha guruhlashga ko'ra bir demografik yosh guruhiga kirgan 20 va 24 yoshlilarning yetukligi sifat jihatidan turli darajaga egadirlar. 25 va 29 yoshdagilar haqida ham xuddi shunday deyish mumkin. 29 yoshga kelib kasb-hunar yetukligi nihoyasiga yetadi va bu davrga kelib aksariyat yoshlar oila qurib bo'lgan va hatto farzandli bo'lishga ham ulgurishadi. Shunday qilib, 29 yoshdagi yoshlar 25 yoshdagilarga qaraganda hayotiy tajribalariga ko'ra ham va boshqa asosiy komponentlarga ko'ra ham sezilarli darajada farqlanib turadi.